
MIB XABARI



MIB xabari

Soliqlarni o'z vaqtida to'lamaslik soliq organi tomonidan qarzdorlikni majburiy undiruvga qaratilishiga va tegishli ijro hujjatlari asosida majburiy ijro organlari tomonidan qarzdorning egaligidagi uy-joy, avtomobil va boshqa mulklardan foydalanishiga ta'qiq qo'yilishi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasidan chet elga chiqishi vaqtincha cheklanishi mumkin.

Shu bilan birga, soliqlarni o'z vaqtida to'lamaslik natijasida soliq qarziga qo'shimcha ravishda sud xarajatlari ham qarzdordan (davlat boji, ijro yig'imi va ma'muriy jarima) undiriladi.

Jumladan, Byuroning So'x tuman bo'limi tomonidan qarzdor "Hushyor" shirkat xo'jaligidan So'x tuman Davlat solik inspeksiya boshqarmasi foydasiga soliq qarzini byudjetga undirish to'g'risidagi ijro hujjati bo'yicha amalga oshirilgan ijro harakatlari jarayonida qarzdor "Hushyor" shirkat xujaligidan 6 dona ijro hujjati buyicha 50 mln so'm soliq qarzdorligi undirilib, ijro ishlari amalda tamomlandi.

Hozirda qolgan qarzdorlikni undirish bo'yicha ijro harakatlari davom ettirilmoqda.

Чамshed Mirhisenov - Byuroning So'x tuman bo'limi davlat ijrochisi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-10-06 16:50:51